

25-May, 2025-yil

## MUSIQACHILIK KASB-HUNARIKA OID XALQ MAQOLLARI TAHLILI

**Farmonova Nazirabegim Sadriddinovna**

*Osiyo xalqaro universiteti*

*3-FT (o')-24 guruh talabasi*

***O'qituvchisi D.O.Bobojonova***

*E-mail: [bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz](mailto:bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz)*

**Annotatsiya** XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fani sohalari taraqqiyoti bilan bog`liq. Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G.L.Permyakovdir. Uning fikricha, “tugallangan fikr”ni shakllantiruvchi majoziy ma’noli gaplarga maqol deyiladi. Maqollarni ham G.L.Permyakov (bosma qolip so`zlar) nazariyasi doirasida ko`rib chiqadi. Har bir tilning lug`at zahirasida murakkab o`ziga xos qoliplar (klishe) bo`ladi, ya’ni turg`un, nutqda tayyor holda qo`llaniladigan, bo`linmas oborotlar mavjud.

**Kalit so’zlar:** maqol, sipoh, hut, omoch, yer tanobi, hammol, qantar...

Ma’lumki, maqollar xalqning ma’naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog`liq bo`lib, qisqa, ixcham, ma’no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatarning tiklanish davri so`zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo`lgan o`zbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa publisistik va badiiy matnlarda faol qo`llanuvchi maqollarning lingvistik tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi vaqtida dolzarb va muhimligidan dalolat beradi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, o`zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan xalq og`zaki durdonalari o`zining haqiqiy bahosini topdi. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniyati, manaviyati hamda til madaniyatiga katta e’tibor qaratila boshlandi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq uzoq yillar davomida saqlanib, bizga meros bo`lib qolgan xalqimizning qadriyatlari va madaniyatimizning tiklanishiga erishildi<sup>1</sup>. Xalq og`zaki ijodi durdonalari o`zining eng qadimiy va betakrorligi, yuksak ijodiy salohiyatga ega ajdodolarimizning ko`p asrlik an’analari, turmush-tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli e’tiqodlari haqida teran va mukammal ma’lumot beruvchi ma’naviy va madaniy oltin merosimiz hisoblanadi.

1. Karnaychidan nima ketdi, bir puf.
2. Karnaychidan oshnang bo`lsa, qulog`ingga paxta tiq.
3. Epsiz sozanda sozin cho`zar.
4. O`Imagan qo`shiqchi, erinmagan **eshikchi**.
5. Kuygan – **o`lanchi** bo`lar, suygan – laparchi.
6. Dutorsiz baxshi bo`lmash, yomonsiz – yaxshi.

<sup>1</sup>Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. -T. 1997, -B.317.

25-May, 2025-yil

7. Karnaychidan qutulaman desang, oldiga borib anor ye.
8. Surnay chalishni bilmaganning ohangi ko`p.
9. Suygan ham qo`shiqchi, kuygan ham qo`shiqchi.
10. Qattiq baqirgan bilan qo`shiqchi bo`lmas.
11. Qirqida qo`liga soz olgan qiyomatda qulog`ini burar.
12. Dutorchi dutorchini ko`rsa qo`li qaltirar.
13. G`at-g`at etgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi.
14. Karnay bor-u, karnaychi yo`q.
15. Nog`orachining ichi po`k, ovozi baland.
16. Oldin edim nog`orachi, endi bo`ldim **tog`orachi**.
17. Doirachining nag`masiga qarab o`yna.
18. Qo`shiq aytgandan qo`rqma, indamasdan qo`rq.
19. Ishni qilgan – karnaychi, baloga qolgan – surnaychi.
20. Dorboz dordan o`lar, **morboz** – mordan.
21. It qilganini **otarchi** qilolmas.

**G`at-g`at etgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi.** Bu maqolning kelib chiqishi xalq o`rtasida quyidagi hikoyaga bog`liq: “Qadim zamonlarda bir karnaychi bilan surnaychi bo`lar ekan. Kunlardan bir kun ular podshohning to`yiga taklif qilinibdilar. Karnay-surnayning sharofati bilan to`y ko`tarinki ruh bilan, shodiyona va tantanali kayfiyatda o`tibdi. Podsho karnay-surnaychilarning xizmatidan g`oyat mamnun bo`lib, ularning har qaysisiga o`z cholg`u-asbobiga siqqancha tilla berishni buyuribdi. Mukofotni olib, uyga qaytishayotganlarida surnaychi karnaychidan gina qilib qolibdi. “Do`stim, to`yda ikkalamiz ham baravar xizmat qildik. Shundaymi? Berilgan in’om esa teng bo`lmadi: sening karnayingga ketgan tillalarni qara-yu, mening surnayimga ketganini qara! Kel hamma tillalarni o`rtaga qo`yib, bab-baravar bo`lishib olaylik. “Shunda karnaychi surnaychiga debdi: E, og`ayni, shungayam “ota go`ri – qozixona” qilib o`tiramizmi?! Nima ko`p – podshoning to`y-ziyofati ko`p. Bu safar menga ko`proq tekkan ekan, yanagi safar sen karnay, men surnay chalamiz – senga ko`proq tegadi. Ular kelgusi safar o`z cholg`u asboblarini almashib chalishibdi. Podsho bu holni sezibdi. Karnay-surnaylardan beo`xshov ovoz chiqib, to`ydan fayz ko`tarilib, hamma g`ala-g`ovur qilayotgan emish. U darg`azab bo`lib, kim nima chalgan bo`lsa, shu bilan ketiga urib, adabini berishni buyuribdi. Shunday qilib, har ikkala holda ham surnaychi bechora yutqazgan ekan. Ushbu maqol aybni birov qilib, azobini boshqa birov tortadigan nohaq hollarda qo`llaniladi<sup>2</sup>.

**Karnaychidan qutulaman desang, oldiga borib anor ye** maqolida karnaychi qulog`ingni qomatga keltirib, tinchligingni buzib, toqatingni toq qilaversa, uning oldiga borib anor yesang, og`zining so`lagi oqib, karnayini puflay olmaydi. U yoki bu qilig`i,

---

<sup>2</sup> Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnomasi: o`zbek xalq maqollariningt izohli lug`ati. – T.: O`zb. Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.

25-May, 2025-yil

ezma-churukligi, shilqimligi, hali uni, hali buni so`rab kelaverishi bilan seni bezdirgan odamdan qutulishning biror yo`lini, chorasini top degan ma’no ilgari surilmoqda.

**Karnaychidan nima ketdi, bir puf** maqolida biror odamdan bir nimani o`rtada vositachi bo`lib, birovdan biror narsani undirib berishni, birovni bir narsaga ko`ndirishni iltimos qilganda: “Bu ish siz uchun hech narsa emas”, “Bu ishni siz osongina uddalay olasiz“, Bu ishga sizning bir og`iz so`zingizgina kifoya“ degan ma’noda qo’llaydilar.

**Karnay bor-u, karnaychi yo`q.** Bir narsa bo`lsa-yu, undan foydalanish zarur bo`lgan boshqa bir narsasi bo`lmasa, topilmagan vaziyatda ishlataladi.

**Qattiq baqirgan bilan qo’shiqchi bo`lmas** maqolida biror kasbni egallash uchun xudo bergen iste’dod va muhit talab etiladi. Qo’shiqchi bo`lish uchun faqat ovozning o`zi kamlik qiladi. Baqirishni bilsa-yu, ammo shirali ovoz bo`lmasa, hech kim bunaqa xonandaning xonishini tinglamaydi, hamma undan o`zini olib qochadi.

**Qirqida qo`liga soz olgan qiyomatda qulog`ini burar.** Ishning omadi o`z vaqtida bajarilganidir. Ilm, kasb-hunarni yoshlikda olish kerak. Shu sababli ota-onalar farzandlarini yoshlikdan dono ustozga shogirdlikka berib, kelajakda o`z yo`lini topishi uchun harakat qiladilar. Yosh o`tgan sayin insonda oldingiday ishtiyoq, xotira, matonat qolmaydi. Kasbni puxta egallash uchun muddat, iste’dod talab qilinadi. Kelajagingni mukammal qurishni istasang, hamma ishni yoshlikda amalga oshir deyilgan.

## ADABIYOTLAR:

1. Oxunjonovna, B. D. (2025). HUJJATLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(3), 24-30.
2. Oxunjonovna, B. D. (2025). ARIZANING YOZILISH TARTIBI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(3), 17-23.
3. MUSTAQILLIK YILLARIDA HUJJATCHILIK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR
4. Oxunjonovna, B. D. (2025). ISH HUJJATLARI VA ULARNING TURLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(3), 37-42.
5. Oxunjonovna, B. D. (2025). MUSTAQILLIK YILLARIDA HUJJATCHILIK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(3), 10-16.
6. Oxunjonovna, B. D. (2025). KASB-HUNARGA OID XALQ MAQOLLARINING KASB-HUNAR DOIRASIDA TASNIFI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(2), 172-176.
7. Oxunjonovna, B. D. (2025). SHAXSIY HUJJAT MATNLARINING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(3), 43-50.

25-May, 2025-yil

8. Oxunjonovna, B. D. (2025). RASMIY USLUBNING QO‘LANILISH DOIRASI. *Economics, management, and digital innovation in education: contemporary trends and approaches*, 2(4), 32-37.
9. Oxunjonovna, B. D. (2025). ONA TILI FANING FANLAR ICHIDA O‘RNI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(4), 58-62.
10. Oxunjonovna, B. D. (2025). O‘ZBEK TILIDA IMLO QOIDALARINING O‘RNI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(4), 11-16.
11. Oxunjonovna, B. D. (2025). USLUBIYAT BO‘LIMINING QO‘LLANILISH TARTIBI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(4), 43-47.
12. Oxunjonovna, B. D. (2025). O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING RANG-BARANGLIGI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(4), 1-6.
13. Oxunjonovna, B. D. (2025). TINISH BELGILARNING O‘RINLI QO‘LLANISHI. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(4), 32-37.
14. Oxunjonovna, B. D. (2025). MAKTAB O‘QUVCHILARI HAYOTIDA MAQOLLARNING O‘RNI. *ИКРО журнал*, 15(01), 496-498.
15. Oxunjonovna, B. D. (2025). O‘QISH VA ILM. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 57-62.
16. Oxunjonovna, B. D. (2025). DO‘STLIK VA BIRODARLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 39-44.
17. Oxunjonovna, B. D. (2025). SABR-TOQAT VA MATONAT. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 13-19.
18. Oxunjonovna, B. D. (2025). ZARGARLIK ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(1), 245-248.
19. Oxunjonovna, B. D. (2025). ISH YURITISH TILI VA USLUBI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(3), 3-9.
20. Oxunjonovna, B. D. (2025). MEHNAT VA TIRIKCHILIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 26-32.